



## SOMONIYLAR DAVLATIDA ISMOIL SOMONIYNING QO'SHIN ISLOHOTI

**To'rayev Anvar Ismoilovich**

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

**Otamurodov Shaxrizod Olimjon o'g'li**

Buxoro davlat universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: otamurodovshaxrizod6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478663>

**Kalit so'zlar:** G'oziy, qo'shin islohoti, g'ulom, harbiy unvon, Ismoil Somoniy, hojib, "Siyosatnoma", harbiy xizmat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Somoniylar davlatida Isomil Somoniy tomonidan amalga oshirilgan qo'shin islohoti, qo'shindagi askarlar faoliyati, ularning tarkibi, xizmat faoliyati va qo'shin ta'minoti haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

### **Ismail Somoni's military reform in the Samanid state**

**Keywords:** Ghazi, military reform, slave, military rank, Ismail Somoni, hajib, "Siyosatnoma", military service.

**Abstract:** This article describes the military reform carried out by Ismail Somoni in the Samanid state, the activities of soldiers in the army, their composition, service activities and army supply.

### **Военная реформа Исмaила Самани в государстве Самани**

**Ключевые слова:** Гази, армейская реформа, раб, воинское звание, Исмаил Самани, хаджиб, "Съосатнама", военная служба.

**Аннотация:** В данной статье описывается реформа армии, проведенная Исомилом Самани в государстве Самани, деятельность воинов в армии, их состав, служебная деятельность и обеспечение армии.

Ilk o'rta asrlar davrida natural xo'jalik va mulkdorlarning bosh-boshdoqligi katta muntazam qo'shin saqlash imkonini bermagan. Bu davrdagi harbiy hokimiyat bevosita yer-mulki bilan bog'liq edi. Yirik mulkdorlar o'zlarining kichik harbiy qismlariga ega bo'lib, faqat harbiy harakat vaqtidagina bir qadar yirik lashkarlar qo'shini tuzilgan. Bu holni Movarounnahrning o'rta asrlardagi barcha mayda mulklarida ham uchratish mumkin edi. Faqatgina Somoniylar davrida mulkchilikning rivojlanishi, shaharlarning o'sishi, davlat boshqaruvining markazlashuvi bilangina Somoniylar saroyidagi ko'p sonli xos qism (gvardiya) asosida muntazam yollanma qo'shin tashkil qilish imkoni





tug'ilgan. Viloyat va tumanlardagi mahalliy hokimlarga tegishli lashkarlar ancha vaqtgacha mavjud bo'lgan[1.238].

Ismoil Somoniyni amalga oshirgan eng muhim ishlaridan biri bu qo'shin islohoti edi. Ungacha qo'shin faqat chaqiriq bo'yicha ma'lum vaqtda to'planib harbiy xizmat o'tovchi askarlar va jihod urushlarini olib boruvchi ko'ngilli g'oziylardan iborat edi. Bu qo'shinlar dehqonlar va xatiblariga bo'ysinar edi. Amir ularga bevosita o'z hukmini to'la o'tkaza olmas edi va faqat dehqonlar va xatiblar orqali ish olib borishga majbur edi. Shuning uchun amir bu vositachilarga bog'liq bo'lib qolgan edi. Ismoil Somoniy Abbosiy xalifalardan o'rnak olib, ilk bor yollangan askarlardan iborat muntazam professional qo'shin tuzishga kirishdi. Bu qo'shin endi dehqonlar yoki xatiblariga emas, balki bevosita uning o'ziga va unga shaxsan sodiq bo'lgan ishonchli odamlariga bo'ysingan. Qo'shin harbiy jihatdan yaxshi tayyorlangan turk "g'ulom" lari, ya'ni yollangan askarlar va qullardan tashkil topgan edi, ularga maosh hukumat tomonidan, ya'ni amir g'aznasidan berilar edi. G'ulomlar qo'shinga asosan g'uzlar va turkman qabilalaridan yollangan va saroy qoshida xizmat qilar edi.[3.38]

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida Somoniylarning saroy qo'shini haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Somoniylar zamonida shunday tartib bor edi. G'ulomlarning darajalari xizmat va hunarlariga qarab ko'tarilgan. Agarda biror qulni sotib olsalar, u bir yil rikobda zandanachi kiyimida va oddiy etik kiyib piyoda xizmat qilardi. Bu qulga bir yil davomida yashirin yoki ochiq otga minish man etilardi. Mabodo shu farmonga itoat qilmasa, jazolanardi. Bir yillik shunday xizmatdan keyin vusoqboshi hojibga aytib, unga bir yaxshiroq kiyim va bir turkcha ot oddiy egari bilan olib berilardi. Bir yil shu ot va qamchi bilan xizmat qilganidan so'ng uchinchi yili beliga bog'lash uchun qaroqchuri qilich olishga sazovor bo'lardi. To'rtinchi yili beliga bog'lash uchun unga kesh (o'qdon) va qin berishardi, beshinchi yili yaxshiroq egar-jabduq, yulduzli jilov, qizil kiyim va xalqaga osilgan temir gurzi berilardi. Oltinchi yili otda yurishi uchun maxsus etik berib, soqiylikka tayinlab, beliga qadah osib yurishga amr etilardi, yettinchi yili bu g'ulom bir to'nlikka erishardi, sakkizinchi yili o'n olti tirgovichli chodir va endi sotib olingan qullardan uch nafari berilib, unga vusoqboshi laqabi qo'yilardi, kumushdan ziynatlangan bosh kiyim va ganjali kiyim in'om qilinardi. Shu tariqa har yili kiyim-kechaklari ko'payib, uning askarlari va martabasi xaylboshi bo'lguniga qadar oshib borardi. Shundan keyingina hojiblikka erishardi. Uning shoyistaligi va hunari, shijoati hammaga ma'lum bo'lganidan so'ng ulug' ishlar qo'lidan kelardi, odamlar va xudovandi





bo'lgan shohiga do'st bo'lardi, to o'ttiz besh yoshga to'lgunicha amirlik unvonini bermasdilar va viloyatlarga ham hokim etmasdilar.[2.101]

Hojib saroy g'ulomlarining eng katta boshlig'i bo'lib, uning qo'l ostida saroy va hukumat muassasalarini qo'riqlovchi ko'p sonli soqchilar qo'shini bo'lgan. Urush bo'lgan vaqtlarda bu qo'shinga eng mas'uliyatli ishlar topshirilgan. Hojiblarning boshlig'i hojibi buzurg, ya'ni "bosh hojib" deb atalgan, u saroydagi eng yuqori martabali amaldorlardan biri hisoblangan. Hojiblar boshqaruv ishlarini olib borishda muhim o'rin egallaganlar. Harbiy xizmatdan ko'tarilgan g'ulomlar mavqeiga ko'ra oddiy g'ulomlar, ya'ni qullardan katta farq qilib, hatto ozod odamlarda ham bo'lmagan imtiyozlarga ega bo'lganlar va yuqori tabaqali hukmdor tabaqa tarkibiga kirganlar. Ular yonida doim qurol olib yurganlar, hukmdor huzuriga kirish huquqiga ega bo'lganlar, muhim lavozimlarni egallaganlar, ko'plab yer va mulk egalari bo'lganlar. Natijada qullik ularga hech qanday qiyinchilik tug'dirmagan, aksincha, ularga katta imkoniyatlar, hokimiyatga va ijtimoiy ustunlik yo'l ochib bergan. Harbiy g'ulomlar yuqori martabaga ega bo'lgandan keyin ko'pincha qullikdan ozod etilganlar. Ularga rasmiy ozodlik berilmasa ham, haqiqatda ular qul bo'lmaganlar, chunki islom dinida abd ("qul") so'zi odamning hozirgi holatini emas, balki faqat uning kelib chiqishini anglatgan. Masalan, oddiy g'ulomlikdan harbiy xizmatda bo'lib, hojib darajasigacha yetgan Alptegin 35 yoshida Xuroson viloyatiga sipohsalor etib tayinlangan. Uning qo'l ostida 2700 ta g'ulom va juda ko'p mol-mulk bo'lgan. Uning qo'l ostidagi g'ulomlardan biri Sabuktegin esa keyinchalik G'aznaviylar sulolasiga asos solgan[3.39].

Ibn Havqalning yozishicha, Somoniylarning qo'shinlari o'zlarining qat'iyligi, shijoati va matonati bilan boshqa mamlakatlarning qo'shinlaridan ustun turgan. Bir kuni Ismoil Somoniyning lashkarboshisi Boris al-Kabir bir masalada amir bilan kelishmay, qo'shini bilan uni tark etdi va Xurosondagi Abdulloh ibn al-Mu'taz ko'targan isyonga qo'shildi. Keyin Boris ko'p sonli qo'shini bilan Iroqqa ketib, sulton, ya'ni xalifa al-Muqtadirni vahimaga soldi. Borisning qo'shini xalifaga o'zining yaxshi tayyorlanganligi, ko'p sonliligi, yetarli oziq-ovqat ta'minoti, ot-ulovlari, qurol-aslahasi, moliyaviy ta'minoti va boshqa ko'p jihatlarini namoyish qildi. Xalifa ularga teng kela oladigan bunday qo'shin hech qayerda va hech qachon bo'lmaganligiga iqrar bo'ldi. Lekin saroy a'yonlari Xuroson qo'shiniga xalifaning ular oldida zaifligini bildirmadilar. Ular Borisga Bag'dodni tark etib, chegara tomon yurishni buyurdilar, chunki Boris ularning quli, ko'p sonli mamluklaridan biri edi[3.40]. Abbosiylar xalifaligida keng tarqalgan g'ulomlar yoki mamluklar tizimining kelib chiqishi O'rta Osiyo bilan






bog'liq bo'lgan. Islomdan ilgari bu yerda "chokar" deb atalgan qo'riqchi qo'shinlar bo'lib, ularning asosiy fazilati xo'jayiniga cheksiz sadoqat va vafodorlik bo'lgan. Hatto xo'jayin o'lganda, uning chokarlari ham o'zlarini o'ldirib, u bilan birga dafn etilganlar. G'ulomlardan iborat professional qo'shinning ta'minoti katta xarajatlar sarflashni talab etgan. Chunki g'ulomlarga urush bo'lmasa ham muntazam ravishda maosh to'lab turish kerak edi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida shunday yozilgan: "Hukmdor qo'shinga nisbatan saxiy bo'lishi, yollangan ozod va erkin odamlarga qullarga nisbatan ko'proq haq to'lashi lozim, chunki ular hukmdor xizmatiga kirib, uning quliga aylanadilar". Ismoil Somoniyni g'ulomlar qo'shinidan tashqari faqat kerak bo'lganda chaqiriladigan Movarounnahr va Xurosonning mahalliy hukmdorlaridan va ko'ngilli askarlardan iborat muvaqqat qo'shini ham bo'lgan. Chaqiriq e'lon qilinganda har bir viloyat bu qo'shinga ma'lum miqdorda askarlar yetkazib bergan. Ibn Havqalning ta'kidlashicha, "bu qo'shindagi askarlarning harbiy mahorati yuksak bo'lib, ular o'z uylari, joylarini, oilalari va qo'shnilarini taniydigan ozod kishilar va dehqonlardan iborat edi. Agar ulardan kimdir jangda halok bo'lsa yoki vafot etsa, ularning o'rnini ko'p sonli zaxiralardan xuddi shunday yuksak mahoratli askarlar to'ldirib turadi". Xalifa al-Mu'tasim Xuroson amiri Abdulloh ibn Tohirga maktub yozib, undan Movarounnahr va Xurosonda qancha kishilik qo'shin yollash mumkin, deb so'ragan ekan. Abdulloh ibn Tohir bu maktubni Nuh ibn Asad yuborib, undan shunday javob olgan: "Xuroson va Movarounnahrda 300 ming qishloq bor. Agar ularning har biridan bir otliq va bir piyoda chiqsa, qishloq ahli ularning g'oyibligini sezmaydilar". Bu bilan u Xuroson va Movarounnahrda aholining soni juda ham ko'pligiga ishora qilgan. Muvaqqat qo'shinga ko'ngilli askarlar tashqi harbiy xavf-xatar tug'ilganda, mamlakatning biror yerida isyon ko'tarilganda va ko'chmanchilarga qarshi harbiy yurish e'lon qilinganda chaqirilgan. Ko'ngilli askarlar muvaqqat qo'shinga yetib kelguncha o'zlarining hisobiga yoki mahalliy hukmdorlarning hisobiga kun ko'rganlar. Aytilgan yerga yetib kelgandan keyin ularning harbiy va oziq-ovqat ta'minoti amir hisobidan bo'lgan. Masalan, al-Muqaddasiy keltirgan ma'lumotga ko'ra, "Chag'oniyon viloyatining hokimi amirning chaqirig'iga javoban Buxoroga 10 ming askardan iborat qo'shin yuborganda, har bir askarning o'z oti va qurol-yarog'i bo'lgan". Bu qo'shinning bir qismini yollanma askarlar ham tashkil etgan bo'lishi mumkin.

#### Xulosa

Ismoil Somoniy Somoniylar davlatini mustahkamlash jarayonida qo'shin islohotiga katta e'tibor bergan. U qo'shin tarkibini mustahkamlash, harbiy





intizomni oshirish va jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha muhim islohotlarni amalga oshirgan. Islohotlar natijasida muntazam, yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan qo'shin shakllantirilib, harbiy yurishlarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyati oshgan. Shuningdek, Ismoil Somoniy mahalliy aholining ishonchli vakillaridan iborat harbiy tuzilmalar yaratib, mustaqil davlatning himoya tizimini mustahkamlashga erishgan. Uning harbiy islohotlari Somoniylar davlatining uzoq vaqt davomida barqaror saqlanishida, tashqi tahdidlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishida muhim rol o'ynagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳасанов.Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018.
2. Низомулмулк, Сиёсатнома, Т.: “Янги аср авлоди”-2008.
3. Shamsiddin Kamoliddin, Timur Kocaoglu, O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi, Т.: “Fan ziyosi”-2024.
4. To'rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
5. To'rayev A. O 'ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLAT VA DAVLAT MUASSASALARINING VUJUDGA KELISHI //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 723-729.
6. To'rayev A. O 'RTA OSIYODA AHAMONIYLAR DAVRI DAVLAT BOSHQARUVI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 820-830.
7. To'rayev A. BUXORO VOHASI HUNARMANDLARINING KASBIY TARIXIDAGI URF-ODAT VA UDUMLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 633-642.
8. To'rayev A. BUXORODAGI ME'MORIY OBIDALARNING QURILISHIDA SHARQ VA G'ARB AN'ANLARINING UYG'UNLIGI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 842-849.
9. Ismoilovich T. A. Xorijiy Tadqiqotchilarning Asarlarida Buxoro Voha Aholisi Etnik Tarkibining Bayon Qilinishi //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 52. – С. 455-459.
10. Ismoilovich T. A. ZARAFSHON VOHASI DEHQONCHILIGINING TARIXIY ILDIZLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 44. – С. 405-408.

